TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

№3. [3]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS, SCIENCE AND TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY ELEKTRON JURNAL

№ 083688

ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025

2025-yil, №3/[3]-son

“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY *ELEKTRON JURNALI*

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
Bosh muharrir o‘rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.
Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Tahrir hay’atining xalqaro a’zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay’ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), dots.
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.
Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).
Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).
Mardiyev Nurali - i.f.n, dots.
Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.
Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.
Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD).
Dehkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).
Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).
Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).
Yuldashov Nurbek Ergashovich - **v**.f.d. (DSc).
Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.
Namazov Ixtiyor Choriyevich - q.x.f.d. (DSc), dots.
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.
Atabayev Ma’ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.
Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr 725 sahifa. E’lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi.

M U N D A R I J A

Iqtisodiyot fanlari

Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna
Mehnat munosabatlarini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....8
Qodirova Xolida Salimovna
Qoraqalpog‘iston Respublikasida ziyorat turizmini zamonaviy shakllarini barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari……14
Norqobilov Jahongir Isroil o‘g‘li
Avtotransport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy baholash mohiyati……...……..…23
G‘iyosov Ilhom Karimovich, Raxmatov Oybek Yangiboyevich
Qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash……...…...33
Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Хамрокулова Райхона Фаридуновна
Демографические изменения и их влияние на макроэкономическую динамику……42
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Xudoyberdiyev Safar Asadullo o‘g‘li
Eksport salohiyatidan samarali foydalanishda mahsulot sifatini oshirishning o‘rni……49
Бегматов Хусан Эгамкулович
Молиявий ҳисоботларни тузишда хорижий тажрибани қўллаш масалалари……..60
Vafoyeva Dilafruz Ikromovna
Sun’iy intellekt, blockchain va kripto-valyutalar: iqtisodiy o‘zgarishlar va yangi imkoniyatlar…….74
Ochilov Ilhom Sayitqulovich
Qishloq xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligiga global iqlim o‘zgarishi ta’siri tahlili.....82
Bustonov Komiljon Kumakovich, G‘aniev Baydulla Toshmurodovich
Qishloq xo‘jaligida turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish.....89
Abdullaeva Go‘zal Altinbekovna, Abdullaev Altinbek Yangibaevich
Tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligi holatining tahlili va rivojlanish tendensiyalari……...96
Po‘latov Sherzodbek Oybek o‘g‘li
Kichik korxonalar hisob siyosatida soliq hisobini tutgan o‘rni…….....117
Zikirov Zafarjon Izzatillo o‘g‘li
Qo‘shilgan qiymat solig‘idagi salbiy farq va ortiqcha to‘lov yuzaga kelishi hamda ushbu tushunchalar farqining mazmuni va iqtisodiy mohiyati…….....…126
Рашидов Жамшид Хамидович
Яшил иқтисодиётни инновацион бошқаришда хавф-хатарларнинг таъсири ва уни камайтириш йўллари.....133
Zulfiqarov Xolbek Ubaydulla o‘g‘li
O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini moliyalashtirish……138
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li
Mamlakatimizda turizm klasterini yaratish va davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish…….....145
Davlatov Sanjar Abdimannonovich
Qishloq xo‘jaligi sohasida biznes muhitini rivojlantirish……..153
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna
Joriy aktivlar auditida tahliliy amallarni qo‘llashning tashkiliy jihatlari……...…164
Расулова Мухаббат Тишабаевна
Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва хорижий тажрибалар……..173
Zakimov Aybek Muratbayevich
Awil xojaliǵinda kooperaciyani rawajlandiriwdiń institucionalliq qatnasí……...183
Yusupdjanova Nargiza Utkirovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug‘bek qizi
O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish stavkasining iqtisodiyotga ta’siri……...189

Tashmatova Dildora Abdusaitovna
O‘zbekistonda marketing faoliyati va unga doir ustuvor yo‘nalishlar…….197
Valijonov Nurullo Nodirbek o‘g‘li
Qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtish……..203
Ataxanov Farhodbek Abdumajidovich
Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning huquqiy-moliyaviy asoslari…….212
Ruzmetov Qudrat Shermetovich, Turgunov Tolibjon Tursunovich
Raqamli boshqaruv tizimini agrosanoat majmuasida qo‘llanilishi……..…..216
Qarshiyev Istamjon Hayitmurod o‘g‘li
O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning roli va ularning yaimga ta’sirini baholash……....220
Abdullayev O‘tkir Abduraim o‘g‘li
Dukkakli ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari……...226
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o‘g‘li
Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish……234
Kadirova Maral Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich
Milliy kooperativ birlashmalarning rivojlangan mamlakatlardagi institutsional modeli va O‘zbekiston iqtisodiyotida adaptatsiya imkoniyatlari……...240
Turobova Hulkar Rustamovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich
Qishloq xo‘jaligi chiqindilarini ekologik toza o‘g‘itga aylantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxiga ta’siri……...……246
Насиров Дилшод Фархадович, Уразов Махмуджон Мусинович
Человеческий капитал как фактор устойчивого роста в инновационной экономике……251
Yusupov Zulunjon Ziyoydinovich
Fermer xo‘jaliklarini lizing asosida texnik modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish...257
Джамалова Асаль Сайдувалиевна
Зарубежный опыт повышения эффективности цепочки создания добавленной стоимости в овощеводстве……..264
Murtolibova Madina Mirjamshid qizi
O‘zbekistonda mehmonxonalar boshqaruvini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari……..…269
Акбарова Нилуфар Неъматжонова
Марказий Осиё давлатларида мол-мулкга солиқ солиш тизими таҳлили……..…274
Bexzod Umarov Batirovich
Yashil menejment tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari……...291
Mamaev Bahodirjon Nosirovich
O‘zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda zamonaviy klasterlash……..…297
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Khusanboy
The ways of improving ecotourism in Uzbekistan……305
Ergashev Ilhomjon Ikromovich
Kichik biznes subyektlarining investitsion jozibadorligini baholash yo‘llari……....314
Sadikov Zafarbek Adilbekovich
Milliy valyuta kursiga ta’sir qiluvchi omillar……....321
Усмонов Шокиржон Алиевич
Фонд бозорларида банкларни фаоллигини ошириш.....328
Иминов Зафаржон Махамматиброхимович
Аҳоли бандлиги бўйича кўп вариантли статистик прогнозлаш жараёни.....337

Saidova Dildora Nurmatovna, Nasulloyeva Malika Botir qizi
Global iqlim o‘zgarish sharoitida resurs va suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi…….346
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husan Bahrom o‘g‘li
O‘zbekistonda ekoturizm rivojlanishida innovatsiyalarning roli……..353
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich
Xalqaro bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish…….361
Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li
Respublika proffessional ta’lim muassasalarida samarali boshqaruvning rivojlanish tendensiyalari……375
Abdullayeva Zulfiya
O‘zbekiston turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik omillari…….384
Kamolova Mohinur Iskandarovna
Turizm sohasida xizmatlar sifatining iqtisodiy ahamiyati va multiplikativ ta’siri……..…391
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li, Xakimova Oygul Axtamdjonovna
Yangi O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyoti sharoitida ayollar mehnatini tashkil etishning dolzarb masalalari……..……395
Bobojonova Zarnigor
Singulyar iqtisodiyotning sanoat 4.0 va raqamli iqtisodiyot sintezi Markaziy Osiyo temir yo‘l sanoati misolida……....403
Эргашев Уйғун Жабборович
Комерал назоратни ривожлантиришда рақамли технологияларнинг роли……...…416
Bobojonova Zarnigor
Temir yo‘l sanoatini raqamlashtirishda singulyar va amaliy iqtisodiyotning tatbiq etilishining xususiyatlari……..…424
Mamatqulov G‘ulom
Pochta aloqasi korxonalari faoliyatida raqamlashtirilgan xizmat turlarini rivojlantirish……...…433
Tursunova Nigora Xusniddinovna
Development of a model for effective management of the company's sustainable development…….445
Mamatqulov G‘ulom
Raqamli transformatsiya va pochta tizimi: ilg‘or davlatlar tajribasi va O‘zbekiston misolida iqtisodiy tahlil……..…450
Urinova Xulkar Shokirovna, Normamatova Zilola Sobirjonovna
yashil iqtisodiyot — kelajak iqtisodiy taraqqiyotining asosi…….458
Yakubov Abdurahmon
Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy asoslari: harakatlar strategiyasining Konstitutsiyaviy mohiyati va amaliy natijalari…….463
Xalilova Aziza Rustamovna
Makroiqtisodiy omillarning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri……....468
Юсупов Азиз Шуҳратович
Тижорат банклари валюта операцияларидаги рисклар ва уларни камайтириш йўллари……473
Бабаматов Толиб Ҳакимович
Мамлакатимизда ислом молиявий хизматларни жорий этишнинг иқтисодий аҳамияти...…..482
Абсаматов Анвар Эргашевич
Мамлакатимиз банкларида активлар самарадорлигини рискка асосланган назоратини ривожлантириш йўллари……490
Максумханова Азизахон Мукадировна
Қишлоқ аҳолиси бандлигини таъминлашда тадбиркорликнинг аҳамияти……499

Kaxorova Anora Nusratovna, Xaydarova Sitora Suranbay qizi
Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida rivojlanishni iqtisodiy asoslash……..507
Tashxodjayeva Gulnoza Saydamxodjayevna
Soya ekinlarining agrotexnologik xususiyatlari va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillar……512
To‘raeva Muyassar Rasul qizi
Meva-sabzavot yetishtirish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili……..518
Khujamkulova Khosiyat Ishbayevna, Ergashev Rakhmonali Shavkat ogli
The role of marketing in agriculture of the Republic of Uzbekistan……..…527
Машарипов Озод Алимович, Минутдинову Лилию Тагировну
Комплексный подход к постановке управленческого анализа на предприятии в системе управленческого учета.....533
Kurambayev Alisher Saburbayevich
Jahon iqtisodiyotida yo‘lovchi tashish xizmatini tashkil etishda temir yo‘l transportining o‘rni va ahamiyati.....540
Dexkanova Nilufar Sagdullaevna
Jahon miqyosida chorvachilikning rivojlanish tendensiyalari.....545
Uralov Eliboy Omonovich
O‘zbekiston mintaqalari sanoatini hududiy tarkibini takomillashtirish.....555
Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi
Ishlab chiqarishni raqamlashtirish: O‘zbekiston misolida yangi imkoniyatlar va muammolar…..…559
Урунов Асрор Алижонович, Косимова Малика Хомидходжаевна, Мусаева Дилноза Дилшатовна
Современные организационно-экономические подходы к развитию телерадиовещательной отрасли Республики Таджикистана: проблемы, модель и перспективы……566
Azamaliyeva Madinaxon
Ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish imkoniyatlari……...580
Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi
Raqamli transformatsiya davrida O‘zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va ularning yechimlari……..…587
Арслонов У.У.
Ўзбекистон ҳудудларида махсус иқтисодий зоналар ривожланишига инвестициялар жалб этишни фаоллаштириш омиллари…….594
U.Allambergenova, S.Sarsenbaev
Problems of improving business of budget institutions and use of budget funds……...603
Арипова Анна Михайловна
Совершенствование бухгалтерского учёта и аудита в республике узбекистан на основании международного стандарта мсфо (ifrs) 3 “объединения бизнеса”……..608

Qishloq xo‘jaligi fanlari

Yuldashova Zebo Zuxrobovna, Sulaymonova Gulasal Nurilloevna
Bug‘doy kasalliklari: turlari, belgilari va kurash choralari……613
Ishmuratov Shavkat Saparovich, Saxadullayeva Iroda Xayrulla qizi, Xurramova Madina Sherali qizi
Arpa donining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga tuproq-iqlim sharoitlarini ta’siri……...619
Sattarova Ra’no Kadirovna
G‘o‘za o‘simligining kasalliklari va ularga qarshi kurash usullarining samaradorligi……..……623
Dexqonova Diloraxon Rasuljon qizi, Yuldasheva Charos Kamoliddin qizi
Sharqiy arnasoy suv havzasida uchrovchi oq sla (sander lucioperca l) balig‘ining meristik belgilari taxlili…….628

Shokirov Alisher Jo‘raboyevich, Davlatov Jo‘shqinbek Shavkat o‘g‘li
Yapon karamini qo‘llanilishi va oziqaviy qiymati……....633
Abdullayev A.K., Aliyev Z.Z., Boboqulov M.Sh., Allayev O.O‘., Tuxliyev B.O., Imomova M.X.
Biologik preparatlarning bug‘doy o‘sishi va hosildorligiga ta’siri……....638
Shokirov Alisher Jo‘raboyevich, Davlatov Jo‘shqinbek Shavkat o‘g‘li
Noan’anaviy sabzavot yapon (brassica rapa. Var. Nipposinica) karamining ahamiyati, botanik, morfologik tuzilishi va biologik xususiyatlari……...…642
Shamuratova Gulnaz Muratbayevna
Sho‘rlangan maydonlarda bio- va nanopreparatlar qo‘llashning sholi o‘simligiga ta’siri……..…648
Karimov Sharofiddin Abdukarimovich, Islomov Toyirxuja Hasan o‘g‘li
Chigitni ekish oldidan organik asosli stimulyatorlar bilan ishlov berishning nihollar unib chiqishiga ta’siri…….653
М.Саримсақов, Г.Тўхтаева
Ғўза навларининг сув истеъмоли кўрсаткичлари ва бир центнер пахта хосили етиштириш учун сув сарфи…….658
O‘razmatov Nasibjon Nazirovich, Zafarbek Kimsanboyevich Mamasoliyev, Nazirov Nozimjon Nasibjon o‘g‘li
Surunkali va almashlab ekishning tuproq unumdorligiga hamda g‘o‘za hosildorligiga ta’siri……663
Ёкубов Жасур Ашуралиевич
Кузги рапс (ясна нави) барг сатҳининг шаклланишига экиш муддати ва меъёрларининг таъсири……....667
Махсадов Хурсанбой Эсонович, Караев Гулям Рустамович, Ўралов Жасур Саидович
Эффективность промывки и технология полива в слабозасоленных и среднезасоленных почвах джизакской области Узбекистана…….672
Махсадов Хурсанбой Эсанович, Караев Ғулом
Ғўзани ресурстежамкор суғориш тартибларини тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсири……681
Намозов Фазлиддин Бахромович, Махсадов Хурсанбой Эсанович, Караев Ғулом
Сояни экиш тизимлари ва суғориш тартибларини тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсири……686
Qodirov Jaloliddin Jamoliddinovich
Farg‘ona viloyati sharoitida ertangi kartoshkani zararkunandalarga qarshi uyg‘unlashgan kurashish samaradorligi……692
Abdurahimova Muhabbatxon Alijonovna
Xalq tabobatida dorivor o‘simliklarning inson faoliyatidagi o‘rni……695
Abdurahimova Muhabbatxon Alijonovna
Kiyik o‘tining (herba ziziphorae pedicellatae) va dorivor rozmarin - rozmarin aptechniy -rosmarinus Officinalis l - ning dorivorlik xususiyatlari……...699
Atabayev Ma’ruf Mahmudovich, Tashkulov Salimjon Mamatnazarovich
Mineral o‘g‘itlarni turli me’yor va nisbatlarda qo‘llashning tuproq unumdorligi hamda g‘o‘za hosildorligiga ta’siri……..703
Kasimov Botir Sadriddinovich, Safarov Asqarbek Asadullayevich, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li
Respublikamizda paxtani har xil mayda iflosliklardan samarali tozalashning konstruksiyasini xisoblash va yaratish usullarini ilmiy asoslash……..…710

Pedagogika fanlari

Khujakulov Abdulaziz Hakim oglu
Development of vital activity safety competency research skills that are developed by students throughincrease……720

ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИДА МАХСУС ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАР РИВОЖЛАНИШИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ЖАЛБ ЭТИШНИ ФАОЛЛАШТИРИШ ОМИЛЛАРИ

АРСЛОНОВ У.У.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
таянч докторанти

Аннотация. Мақолада республика ҳудудларида махсус иқтисодий зоналар ташкил этиш, уларда саноат маҳсулотлари ишлаб чиқиш, инвестициялар киритиш ҳамда самарадорлик кўрсаткичларининг ўзгариш динамикаси таҳлил қилинган. Шунингдек, мақолада махсус зоналарни янада ривожланиши учун инвестициялар жалб қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича таклифлар асосланган.

Калит сўзлар: ҳудуд, махсус иқтисодий зоналар, саноат ишлаб чиқариши, инвестициялар, бошқариш, экспорт, истиқболда ривожланиш.

Аннотация. В статье анализируется динамика создания специальных экономических зон (СЭЗ), производства ими промышленной продукции, привлечения инвестиций, динамика показателей их эффективности в территориях Узбекистана. Также в статье обоснованы предложения по активизации привлечения инвестиций для дальнейшего развития специальных экономических зон.

Ключевые слова: специальные экономические зоны, промышленное производство, инвестиции, управление, территория, перспективы развития.

Annotation. The article analyzes the dynamics of the establishment of special economic zones in the republic's territories, the development of industrial products, investments, and the dynamics of efficiency indicators. Also, the article is based on suggestions for improving the investment attraction system for the further development of special zones.

Keywords: region, special economic zones, industrial production, investment, management, expert, development prospects.

КИРИШ

Бозор рақобати шароитида давлатлар ёки айрим минтақаларнинг нисбий афзалликлари инвесторларни юқори даромад (фойда) олишга ундовчи асосий куч ҳисобланади. Шу боис инвесторлар ўз инвестицияларини биринчи навбатда нисбатан арзон хом ашё, мехнат, энергия, сув ва бошқа ишлаб чиқариш ресурслари мавжуд бўлган минтақа ёки худудига жойлаштиришга ҳаракат қиладилар.

Ўзбекистоннинг ҳозирги замон иқтисодиёти ва унинг саноат салоҳияти кўп жиҳатдан ишлаб чиқариш базаси тармоқлар технологиялари ҳисобига боғлиқ ҳолда ривожланган. Шу сабабли иқтисодиётнинг турли тармоқларидаги корхоналар халқаро бозорларда рақобатбардош бўлишлари учун жаҳонда рўй бераётган технологик модернизация қилишни ҳисобга олишлари керак. Янги

технологик ечимларнинг миллий ишлаб чиқарувчилари ва салоҳиятли инвесторларнинг ўзаро ҳамкорлигини таъминлайдиган маҳаллий технологик занжирларни яратиш ҳудудларда яратилган махсус иқтисодий зоналар (МИЗ) ушбу муаммонинг самарали ечими бўлиши мумкин. Шу билан бирга ҳудудларда ишлаб чиқаришни технологик қайта жиҳозлаш, ишлаб чиқаришнинг дастлабки босқичидан бошлаб амалга ошириш катта молиявий харажатлар талаб этади ва бу маҳсулот таннархини юқори бўлиш хавфи билан боғлиқ ҳисобланади. Ушбу шартларда МИЗлар тегишли давлат ёрдамига муҳтож бўлиш фойдали бўлади.

Шу тарзда қўллаб-қувватлашнинг самарали механизми республикамиз ҳудудларида махсус иқтисодий зоналар (МИЗ)ни ташкил этиш ва ривожлантириш ҳисобланади. Хорижий мамлакатлар амалиёти шуни кўрсатадики, МИЗлар ёрдамида турли мамлакатлар ҳукуматлари ҳимоя йўлларини ишга солган ҳолда маҳсулотлар экспортини ривожлантириш ва диверсификация қилишга (қайта таркиблаш), янги иш ўринлари яратишни рағбатлантиришга, божхона ва ҳуқуқий соҳаларда, ишлаб чиқариш ва меҳнат муносабатларини ривожлантиришда янги стратегия ва ёндашувларни амалиётга қўллашга интилмоқдалар.

Таъкидлаш ўринлики, Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев ўз маърузаларида МИЗ фаолияти самарадорлигини таҳлил қилиш масалаларига қайта-қайта тўхталиб, улар фаолиятидаги ҳамда иқтисодиёт ривожига, инвестцияларни жалб этиш жараёнларига салбий таъсир кўрсатаётган камчиликларни, шунингдек, МИЗлар фаолиятининг ижобий натижаларини ҳам эътироф этган [2].

Шуларни ҳисобга олганда, Ўзбекистонда ҳам ҳозир фаолият юритаётган МИЗлар ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини баҳолаш орқали улар фаолиятини яхшилашга инвестициялар жалб этиш ҳозирги кунда Янги Ўзбекистон тараққиёти учун зарур ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Эркин (махсус) иқтисодий зоналар ташкил этиш, уларни бошқариш, ривожлантириш ва инвестициялар жалб этиш муаммоларига кўплаб хорижий, шунингдек, мамлакатимиз олимлари ҳамда мутахассислар тадқиқотлари бағишланган. Ушбу йўналишда хорижий мамлакатлар, айникса Россия Федерацияси олимларининг тадқиқотлар диққатга муносибдир.

Россиялик тадқиқотчи Е.А. Авдокушина [4] тадқиқотларида халқаро бозорлар фаолият тури бўйича савдо ва саноат зоналарига ажратилади. Бу халқаро ҳамда давлат ички бозорларида маҳсулотлар харакатини ва тадбиркорлик фаолиятини ўзаро уйғунлашувига хизмат қилади. П.В. Павловнинг илмий ишида [5], иқтисодий зоналар ташкил этилиши усули ҳамда қўламига мос равишда улар ҳудудий ва функционал режимда фаолият юритувчи зоналарга ажратилган. Ушбу иш муаллифи мақсад ва вазифаларига қараб зоналарни ёпиқ, интеграциялашган, “очиқ сектор” иқтисодиёти ҳамда депрессия ҳолатидаги туманни ривожлантириш ҳудудларига бўлган. В.А. Савининг [6] илмий ишларида эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва

уларга инвестициялар киритишнинг Хитой тажрибаси билан боғлиқ муаммолар ўрганилган. Унда муаллиф турли шаклдаги зоналарни ривожланишига инвестициялар киритиш ва хусусий тадбиркорлик корхоналарни қўллаб – қувватлашга асосий этибор қаратган.

Ўзбекистон минтақаларини ривожлантириш, уларга инвестициялар жалб қилиш ҳамда ҳудудларга саноатни жойлаштириш муаммолари А.М. Содиқов ҳамда У.С. Нодирхонов илмий ишларида тадқиқ қилинган [7, 8]. Ушбу муаллифлар минтақаларда саноат зоналарини ривожлантириш механизмлари бўйича таклифлар ишлаб чиққан. Ҳудудлар иқтисодиёти тармоқларига инвестиция, шу жумладан тўғридан – туғри хорижий инвестицияларни жалб этиш йўллари ва васиталари Б.Б. Валиев [9] илмий ишларида асослаб берилган.

Ўзбекистонда эркин (махсус) зоналарни ташкил қилиш ва уларни ривожлантириш масалалари Г.А.Уралова ва Н.И.Неделькиналарнинг [10] илмий ишлари бағишланган. Уларда эркин иқтисодий (махсус) зоналар самарадорлигини ошириш ва уларга ташқи инвестциялар жалб этиш, иқтисодий зоналарнинг нисбий афзалликларини баҳолаш жараёнлари бўйича таклифлар берилган.

Шу билан бирга, минтақа ҳудудларида махсус иқтисодий зоналарни ривожлантириш ҳамда уларга инвестицияларни кенг жалб этиш билан бирга ташкилий, институционал ва иқтисодий муаммолар ва уларни ҳал этиш усуслари етарлича ўрганилмаган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ўзбекистон иқтисодиётини барқарор ривожлантириш йўлларидан бири – бу ҳудудларда саноат ишлаб чиқаришини амалга ошириш лойиҳаларига ички ва хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш ҳисобланади. Бундан асосий мақсад – махсус иқтисодий зоналарда яратилган маҳсулотларни нафақат ички, балки ташқи бозорларга экспорт қилишдир. Ушбу вазифаларни амалга оширишнинг методологик асосини мамлакатимизда 2019 йил янги қабул қилинган ЎзРнинг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги қонунига [3] киритилган қоидалар ташкил этади. Тадқиқотда дастлаб методологик қоидалар қонунда белгиланганидек, тадқиқот объектида намоён бўлиши ҳамда қандай натижаларга эришилганлиги реал статистик маълумотлар динамикаси асосида таҳлил қилиниши керак. Бундай ёндашув келгусида махсус иқтисодий зоналарни ривожлантириш учун қандай муаммо ва вазифаларни ечишга асосий эътибор қаратиш зарурлигини, ана шу вазифаларни қабул қилиш усул ёки йўлларини асослашга имконият беради.

Тадқиқот натижа ва хулосалари белгилаб олинган мақсадга мос бўлиши ва улар ушбу тадқиқот объекти учун нафақат муҳим илмий, балким юқори амалий аҳамиятга ҳам эга бўлиши керак.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистонда махсус (дастлаб “эркин”) иқтисодий зоналар (МИЗ)ларни шаклланиши ва ривожланиши босқичма-босқич амалга оширилган ва ҳозирги кунгача бундай жараён фаол давом этмоқда. Ўзбекистон Республикасида дастлаб

“Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги қонун 1996 йилда қабул қилинган. Ушбу қонунга мувофиқ республика ҳудудларида инвесторлар фаолиятини эркинлаштиришни назарда тутувчи, илғор қонунчилик ҳужжати бўлган. Ушбу ҳужжатнинг янгилиги ва кенг кўламлилигига қарамай, ўша даврда бу қонун иқтисодиётда кенг фойдаланилмаган.

Республикамизда иқтисодий зоналар фаоллашув даври 2008 йилда “Навоий” эркин иқтисодий зонаси, кейинчалик “Ангрен” (2012 йил), “Жиззах” (2013 йил), “Ҳазорасп” (2018 йил) махсус иқтисодий зоналар ташкил этилиши билан боғлиқ. Ушбу йирик зоналарга сармоя киритиш, шунингдек, янги технологияли саноат ишлаб чиқариш ва қурилиш қувватларини ташкил этишнинг асосий марказларига айлана бошлади ва уларнинг фаолияти турли хилдаги маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил этиш бўйича лойиҳаларни амалга оширишда ўз самарасини кўрсатмоқда.

Ташкил этилган ЭИЗ муваффақиятли фаолият юритган ва улар Ўзбекистон иқтисодиётининг алоҳида маҳаллий сегментларини ифодалаган ва уларнинг ҳар бир мақсадга мувофиқлик тамойили асосида шаклланган ўзига хос тармоқ ихтисослигига эга ҳисобланади. “Навоий” ЭИЗда ишлаб чиқаришнинг бешта йўналиши: машинасозлик ва автомобиль бутловчи қисмлари ишлаб чиқариш, электротехника, фармацевтика маҳсулотлари, пластмасса ва полимер маҳсулотлари ишлаб чиқариш, шунингдек, мева-сабзавотларни сақлаш ва қайта ишлаш йўналишлари ривожланмоқда.

“Ангрен” ва “Жиззах” МИЗ замонавий қурилиш материаллари, металл буюмлар, тўқимачилик ва электротехника маҳсулотлари, шунингдек, тайёр чарм маҳсулотлари ишлаб чиқаришга асосий эътибор қаратилмоқда. Ушбу ЭИЗ ҳудудида жойлашган қўшма корхоналарнинг айримлари нафақат Ўзбекистонда, балки бутун Марказий Осиёда ягона ҳисобланади. Масалан, “Жиззах” эркин иқтисодий зонасида фаолият юритаётган “Мингюан Силу Индустрий” қўшма корхонаси 110 миллион доллар, жумладан, 56,1 миллион доллар тўғридан-тўғри хорижий сармояни ўзлаштиришни режалаштирган. Йилига 24 миллион квадрат метр шиша ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва Қозоғистон, Афғонистон, Тожикистон ва Қирғизистонга декоратив ойна экспортини йўлга қўйиш режалаштирилган ва ҳозир бу йўналиш самарали ривожланмоқда.

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида [1] барқарор ривожланишни изчил давом эттириш ва ҳудудларга, биринчи навбатда, хорижий инвестцияларни фаол жалб этиш, иқтисодиётни ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, хусусийлаштирилган давлат объектлари негизида хусусий тадбиркорлик, туман ва шаҳарларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича кўплаб устувор вазифалар белгиланган. Бу йўналишда ЭИЗ, технопарклар ва кичик саноат зоналари (КСЗ) фаолияти самарадорлигини ошириш, янги шу каби тузилмаларни ташкил этиш борасида амалга оширилаётган ишлар муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ушбу йўналишларда бугунги кунда республика минтақаларида 25 та махсус иқтисодий зоналар (МИЗ) фаолият юритмоқда (1-жадвал).

Улар таркибида ҳудудлар бўйича жами 1071та кичик ва ўрта корхоналари фаолият кўрсатмоқда. Улар сони 2024 йилда 2019 йил бошига нисбатан 2,6 мартага кўпайган. Махсус зоналарда 2024 йил ҳолатига кўра 44182,5 млрд. сўм ёки 2019 йилга нисбатан 2,9 мартадан ошиқ саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилган.

Махсус иқтисодий зоналарда 2024 йилда 2019 йилга нисбатан қариб 5 марта кўп асосий капиталга инвестициялар киритилган ва бу ўртача 2024 йилда ҳар бир корхонага 15,4 млрд. сўмга тенг инвестиция киритилганлигини кўрсатади. Ушбу тоифадаги махсус зоналарда 2024 йил бошига 1745,9 млрд. сўм фойда олинган ва бу 2019 йилнинг шу даврига нисбатан 4,3 мартага кўпдир.

1-жадвал

Ўзбекистонда махсус иқтисодий зоналар ривожланишининг асосий кўрсаткичлари динамикаси (млрд. сўм)

Кўрсаткичлар	2019 й.	2020 й.	2021 й.	2022 й.	2023 й.	2024 й.	Ўсиш, 2024 йил 2019 йил, марта
Махсус иқтисодий зоналар сони	16	18	21	20	21	25	1,6
улар таркибидаги корхоналар	405	526	513	679	768	1071	2,6
Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш	15074,3	12268,8	18704,2	27252,1	37759	44182,5	2,9
Қурилиш ишлари ҳажми,	36,9	62,7	31,4	63,3	194,1	198,7	5,4
Асосий капиталга киритилган инвестициялар	3313,1	3971,6	3319,9	3735,0	6269,9	16511,5	5,0
Фойда	401,7	564,3	540,3	2081,4	1177,4	1745,5	4,3
Дебиторлик қарзлари	3704,9	3172,2	4994,7	6950,7	9754,6	17099,3	4,6
Кредиторлик қарзлари	4851,3	4782,1	5843,1	8080,0	10759,5	24816,9	5,1
Экспорт	927,5	1782,7	3646,4	5290,6	5956,4	1,8 (млн. $ АҚШ)	

Манба: ЎзР миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

Ўзбекистон махсус иқтисодий зоналарда 2024 йилда ўтган йилларга нисбатан дебиторлик ҳамда кредиторлик қарзлари ошган. Улар таркибида кредиторлик қарзлари 2024 йилда 2023 йилга нисбатан 2,3 мартага кўпайган ва шу даврда кердиторлик қарзлари дебиторлик қарзидан қарийб 45 фоизга кўп ҳисобланади. Шуни эътиборга олиб МИЗларда корхоналар билан дебиторлик

қарзларини йўқотиш учун кескин чораларни кўриш зарур ва бу билан кредит қарзларини ёпиш имконияти пайдо бўлади.

Ўзбекистон ҳудудларида фаолият юритаётган МИЗлар ривожланишининг муҳим натижаларидан бири – бу уларда кейинги йилларда экспортга маҳсулот чиқариш даражаси ошганлигидир. Махсус зоналарда 2024 йилда 1,8 млн. АҚШ долларига тенг маҳсулот хорижий давлатларга экспорт қилинган. Бу кўрсаткич сўмда ҳисобланганда 2023 йилда йилга нисбатан қарийб 10,2 % га, 2021 йил шу даврига солиштирганда эса 1,6 мартага кўпдир. Мамлакат ҳудудларида фаолият юритаётган махсус иқтисодий зоналар корхоналарида 10 та гуруҳга кирувчи маҳсулот турлари ишлаб чиқарилмоқда (2-жадвал).

2-жадвал

Махсус иқтисодий зоналар корхоналарида ишлаб чиқарилган маҳсулот турлари (жамига нисбатан % ҳисобида)

Маҳсулот турлари	2022 й.	2023 й.	2024 й.	Ўртача 3 йиллик
Озиқ-овқат маҳсулотлари	17,9	16,6	14,1	16,2
Металлургия саноати маҳсулотлари	16,3	17,0	16,5	16,6
Резина ва пластмасса буюмлари	10,8	8,7	8,5	9,3
Машина ва ускуналардан ташқари тайёр металл буюмлари	10,8	10,0	10,0	10,3
Авторанспорт воситалари, треллерлар ва ярим тиргагичлар	3,3	24,7	28,7	20,8
Тўқимачилик маҳсулотлари	4,4	4,9	6,1	5,8
Нометалл минерал маҳсулотлар	6,0	6,0	5,4	5,8
Компьютерлар, электрон ва оптик маҳсулотлар	4,4	4,5	5,1	5,0
Кимёвий маҳсулотлар	5,3	4,5	3,6	4,5
Бошқа маҳсулотлар	6,2	9,1	2,0	5,7

Манба: ЎзР миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида тузилган.

Озиқ-овқат, металлургия саноати, резина ва пластмасса ҳамда тайёр металл буюмлари махсус зона корхоналарида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар таркибидаги катта улушга эга. Ушбу гуруҳларга кирувчи маҳсулотлар махсус зоналар ихтисослигини белгилаши билан бирга ҳудудлар уларга бўлган талаб тез-тез ўзгариш хусусиятига ҳам эгадир. Бу зонага кирувчи корхоналарда маҳсулотларни экспортга узлуксиз чиқариш имкониятини камайтиради. Шуни ҳисобга олиб махсус иқтисодий зоналарда экспортбоп саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар ихтисослигини чуқурлаштириш бўйича алоҳида дастур қабул қилиш, унга мос инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва молиялаштириш учун давлат-хусусий шериклик механизми қоидаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Махсус иқтисодий зоналар ривожланиши ҳамда экспорт салоҳиятини ошириш ҳақида гап кетганда, ҳар доим хорижий инвесторларни давлат томонидан қўллаб-қувватлашга катта эътибор қаратилади. Ўзбекистонда чет эл инвесторларининг талабларига жавоб берадиган қатор кафолат ва имтиёзлари яратилган. Хусусан, хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналарнинг

устав капиталидаги хорижий капиталнинг энг кам улуши 30 фоиздан 15 фоизга камайтирилди.

Хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар учун уч йиллик виза олиш имконияти яратилди. Хорижий инвесторлар иштирокидаги корхоналарни давлат рўйхатидан ўтказиш учун давлат божи уч баравар камайтирилади. Шунингдек, 2018 йил 1 октябрдан бошлаб инвестиция фаолиятини амалга ошириш учун ер участкаларини беришнинг янги механизмлари ишга туширилди. Шундай қилиб, ер участкалари тадбиркорларга 50 йилгача ижарага берилади. Энг муҳими, маҳаллий ҳокимликларнинг инвесторлар билан ишлашнинг янги тартиби белгиланди. Инвестор ёки хўжалик юритувчи субъект давлат органи ёки унинг мансабдор шахси томонидан қабул қилинган маъмурий ҳужжатга мувофиқ иш бошлаган, лекин юқори турувчи орган ушбу қарорни ноқонуний деб эътироф этган тақдирда, тадбиркорга етказилган зарарни тўлиқ қоплаш имконияти яратилди. Бундан ташқари, ЭИЗ иштирокчиларига берилган фойда солиғи ва ягона солиқ имтиёзларининг амал қилиш муддати эркин иқтисодий зона ҳудудидаги ишлаб чиқариш объекти фойдаланишга қабул қилинган кундан бошлаб ҳисобланади. Шундай қилиб, Ўзбекистонда хорижий инвестицияларни жалб этишни кучайтириш ҳамда мамлакатимизда ишлаётган инвесторларни қўллаб-қувватлаш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар давлат томонидан жалб этилган маблағлар оқимини кўпайтириш борасида амалга оширилаётган саъй-ҳаракатларни тўлиқ ва самарали акс эттиради.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, республика барча МИЗларига уларни ташкил этиш чоғида қўйилган талаблар тўлиқ бажарилмайди. Ҳозирча МИЗлар корхоналарига хорижий инвестицияларни жалб қилиш кўрсаткичларига эришиш даражаси суст. Шу билан бирга, оқилона ҳал этилиши зарур бўлган кўплаб вазифалар мавжуд ва бу билан МИЗлар раҳбарлари шуғулланиши керак. Шу муносабат билан қуйидагилар таклиф этилади:

1. Махсус иқтисодий зоналар (МИЗ)ни ривожлантириш узоқ муддатли стратегик буюртмаларни мавжуд бўлишини талаб қилади. Жаҳон амалиёти шуни кўрсатадики, давлат кафолатлари билан кенг кўламли буюртма асосида МИЗларга йирик хорижий ва ички инвесторларни жалб қилиш мумкин. Кафолатланган узоқ муддатли жозибали буюртмалар учун инвесторлар ҳар доим топилади, солиқ ва божхона имтиёзлари улар учун фақат қўшимча имтиёзларга айланади. Мураккаб вазифалар зудлик билан самарали ҳал этилади, масалан, ишлаб чиқариш саноатида унинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улуши ҳатто йиғиш заводлари, импорт ўрнини босиш, тармоқлар бўйича иқтисодий алоқаларни тиклаш, МИЗлар иштирокчилари сони, тез суръатлар билан ўсиши ҳисобига ҳам ортади. Давлатнинг инвестицион юкининг камайиши, технологияларнинг жадал ривожланиши юз берди.

2. Махсус иқтисодий зоналарни ривожлантиришни стратегик ва тезкор бошқариш муҳим аҳамиятга эга. МИЗлар фаолиятининг жорий натижаларини тармоқ ва корхона миқёсида баҳолашини амалга ошириш ва ҳар бир зона

негизида тармоқ кластерларини ташкил этиш бўйича аниқ бир йиллик, 3 йиллик ва янада узоқ муддатли чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Бошқа барча тадбирлар (солиқ, божхона, ердан фойдаланиш маъмурияти) зоналарни ривожлантиришнинг кластер режаси таркибига кириши мумкин. Бу ҳар бир МИЗлар учун хомашё, кадрлар, технология, инфратузилма ва транспорт-логистика таъминоти билан боғлиқ масалаларни профессионал тарзда ҳал этиш, шунингдек, таъминот ва маркетинг занжирларини, соғлом молиявий инфратузилмани яратиш ҳамда маҳаллийлаштириш матрицаларини жорий этишни назарда тутади.

3. Ишлаб чиқариш, экспорт, импорт ва ижтимоий инфратузилмаларни устувор ривожлантириш. МИЗлар самарали фаолият юритиши учун ушбу инфратузилмаларнинг аҳамияти катта. Ҳозирги даврда аксарият хорижий мамлакатлар МИЗ ҳудудида жаҳон андозаларига мос инфратузилмавий ечимларни таклиф этади, бу эса резидент компанияларга ва Ўзбекистон корхоналарига тезда ишлаб чиқаришни бошлаш ва дастлабки сармояларни нисбатан камайтириш имконини беради.

4. Давлат томонидан МИЗлар фаолиятини ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қувватлаш чораларини амалга ошириш талаб этилади. Бунда дастлабки босқичларда ҳар бир МИЗларни ривожлантириш дастури инвесторларни жалб қилиш учун фискал рағбатлантиришнинг маълум бир шаклини таклиф қилиши мумкин. Мавжуд далиллар шуни кўрсатадики, фақат рағбатлантириш тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб қилиш учун етарли бўлмайди. Шу нуқтаи назардан, рағбатлантириш шакллари маълум бир зонанинг ўзига хос хусусиятларига қараб ўзгариши мумкин.

5. Ҳар бир ЭИЗнинг тизимли мониторинги ва баҳоланиши МИЗлардаги тараққиётни кузатиш ва мақбул қарорлар қабул қилишни асослаш учун муҳим сиёсат воситаси сифатида зарур. Мониторинг сифатида эришилган ютуқларни таҳлил қилишнинг узлуксиз функцияси сифатида ўз вақтида қарор қабул қилиш, жавобгарликни таъминлаш, баҳолаш ва ўрганиш учун мунтазам равишда фаолият кўрсатиши зарур ҳисобланади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

1. Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотлар жараёнида хорижий инвесторлар учун кенг ҳуқуқий кафолат ва имтиёзлар, хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантириш бўйича тизимлар шаклланди.

2. Ўзбекистон ҳудудларида юқори технологияли ишлаб чиқаришларни ривожлантириш учун Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида белгиланган устувор йўналишлар бўйича вазифаларни амалга ошириш мақсадида, МИЗларга тўғридан-тўғри инвестициялар киритаётган хорижий инвесторлар учун энг қулай инвестиция муҳитини яратиши чора-тадбирлари кўрилмоқда.

3. Республикада махсус иқтисодий зоналар корхоналарини янада ривожлантириш учун энг қулай шароитларни, янги юқори технологияли ишлаб

чиқаришларни яратиш учун тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишни кенгайтиришнинг энг муҳим омили эканлиги белгиланди.

4. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, республика ҳудудларига тўғридан-тўғри ички, шунингдек, хорижий инвестицияларни жалб қилишни кучайтириш учун ушбу жараённи тартибга солувчи маъмурий-иқтисодий, институционал ва ижтимоий-психологик (рағбатлантирувчи) воситаларни янада такомиллаштириш зарур.

5. Инвесторлар учун юқори имтиёзли МИЗларда саноат корхоналарини ташкил этилиши, инвесторлар учун муҳим сигналлардан бири эканлигини ҳисобга олиб, республикамизнинг турли ҳудудларида фаволият юритаётган МИЗ доирасида ўзлари фаолият юритаётган ҳудудларни ривожлантириш мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, республика иқтисодиёти ривожланишига кучли таъсир кўрсатувчи истиқболли МИЗлар саноат мажмуаларини шакллантириши керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш.М. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. –Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 25-октябрдаги “Эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-иадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3356-сон Фармони

3.Ўзбекистон Республикасининг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонуни. 18.02.2020, 03/20/604/0175-сон.

4. Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. – М., 1993. С.6-7.

5. Павлов П.В. Роль различных типов свободных экономических зон в экономике стран в разным уровнем экономического развития // Региональная экономика: теория и практика. 2006, № 9 (36).

6. Савин В.А. Свободные экономические зоны в Китае // Международный бизнес России. – 1995, - № 12. – С.15-46.

7. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Ташкент, “Iqtisod-Moliya”, 2005. С. 198.

8. Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. – Т.: “Фан ва технология”, 2011. С. 148.

9. Валиев Б.Б. Иқтисодий ўсишни таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан самарали фойдаланишнинг методологик асослари. Монография. Тошкент: IFMR, 2007. – 222 б.

10. Уралова Г.А., Неделькина Н.И. Свободные экономические зоны: опыть создания и перспективы развития. Научно-популярное издание. - Т., 2010. – 48 с.

11. Международный Валютный Фонд. Официальный сайт: http://www.imf.org/external/russian.